QASHQADARYO VILOYATI
G‘UZOR TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

O‘zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G‘uzor shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 14-uy.Tel:75.552-13-60

2021 - yil 27 - avgust 205-4-56-Q/21 G‘uzor tuman hokimligi

G‘uzor tumanida maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni maktabgacha ta‘limga qamrovini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-sonli, 2019 yil 13 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli va Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi “Bolalarni boshlang‘ich ta‘limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-sonli qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazzirining 2019 yil 17 avgustdagi 14-14/1-2599-sonli yig‘ilish bayoni ijrosi yuzasidan tumanda maktabgacha ta’limga qamrovni ko‘tarish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-sonli, 2019 yil 13 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasinitasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli va Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdvgi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-sonli qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirning 2019 yil 17 avgustdagi 14-14/1-2599-sonli yig‘ilish bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda tashkil etilayotgan bir yillik majburiy bepul guruhlarning manzilli ro‘yxatini ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2019 yil 17 avgustdagi 14-14/1-2599-sonli yig‘ilish bayoni 10-bandi ijrosi yuzasidan tuman xalq ta’limi bo‘limi (R.Eshqobilova) ilovada ko‘rsatilgan maktablardagi bo‘sh sinf xonalarida bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash guruhlari uchun ajratilishini ta’minlansin.

4. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash tuman bo‘limi (Ne’matov) tumandagi har bir mahalla fuqarolar yig‘inlarida kamida 1 tadan oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tashkil etish chora-tadbirlarini ko‘rsin.

5. Tuman sanitariya epidemiologik osoyishtalik markazi (Salomova), tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (Norov) tumanda bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash uchun maktablardan ajratilgan va mahalla fuqarolar yig‘inlarida tashkil etiladigan nodavlat maktabgacha ta’ldim tashkilotlari xonalarida sanitar-gigiyenik xolatlarni va yong‘in xavfsizlik holatlarini meyor talablari darajasida bo‘lishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Tuman moliya bo‘limi (Xurramov):

-davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola qamrovi oshishi natijasida yangidan tashkil etiladigan guruxlar bo‘yicha xarajatlar smetasiga tegishli o‘zgarishlar kiritib, qo‘shimcha moliyalashtirilishini ta’minlansin.

-davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilgan guruhlarni belgilangan tartibda jihozlanishini ta’minlash uchun maxalliy budjetdan mablag‘ ajratish haqida tuman hokimligiga taklif kiritsin;

-bo‘sh turgan kollej bino-inshootlarida, maxalla fuqarolar yig‘inlari, maktablarning bo‘sh turgan bino-inshootlari va sinf xonlarida tashkil etiladigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash guruhlari bo‘yicha xarajatlar smetasi moliyalashtirilishini ta’minlansin, bunda ularning ta’mirlanishi, jixozlanishi va ish haqi xarajatlari inobatga olinsin;

-tashkil etilayotgan boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash bo‘yicha guruhlarni o‘qitish uchun pedagog xodimlar oylik ish haqlarini 25-30 nafar bola shakllanganda bir guruh ekanligi;

-xar bir guruh uchun 0,5 stavka yordamchi tarbiyachi,0.25 stavka musiqa

rahbari shtati berilishini;

-tarbiyachi va yordamchi tarbiyachilarning ish xaqlari moliyalashtirilishini;

-bola qamrovi oshishi natijasida yangidan tashkil etiladigan guruhlar bo‘yicha xarajatlar smetasiga tegishli o‘zgarishlar kiritib, qo‘shimcha moliyalashtirilishini;

-tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi balansiga berilgan bino-inshoottni ta’mirlab foydalanishga topshirish uchun bo‘ladigan mablag‘ni joriy yilning dekabr oyiga qadar moliyalashtirilishini ta’minlash;

-maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’mirtalab foydalanilmasdan turgan xonalarni ta’mirtalab foydalanishga topshirilishi uchun tuman tasarrufida qoladigan mablag‘dan ajratish choralarini ko‘rsin;

7. Tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi (Boltayeva), tuman hokimligi Moliya bo‘limi (Xurramov) bilan birgalikda;

-bola qamrovi ko‘payganda guruxlar ochish;

-bola qamrovi kamayganda guruxlarni qisqartirish;

-tashkil etiladigan maktabgacha ta’lim tashkilotlaring bolalarini boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash guruhlarida tashkiliy huquqiy va metodik yordam ko‘rsatish vazifalari yuklatilsin, bunda Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan Davlat talablari va Davlat o‘quv dasturi asosida o‘qitilishini talab darajasida bo‘lishini ta’minlash;

-tashkil etilayotgan guruhlar manzilli ruyxati shakllantirish vazifasi yuklatilsin.

8. Tumanda maktabgacha ta’limga qamrovni 60%ga ko‘tarish bo‘yicha sektor rahbarlari mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

9. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Panjiyev zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **Б.Суюнов**

Ғузор туман ҳокимининг
2021 йил 27 августдаги
205-4-56-Q/21-сон қарорига
1-илова

Tashkil etilayotgan guruhlar manzilli ro‘yxati

T/r	Manzili	Qaysi DMTT hisobidan tashkil etiladi	Tashkil etiladigan joyi	Tashkil etiladigan guruhlar soni
1	Cho‘michli mFY	1-DMTT	26-maktab	1
2	Sovbog‘ MFY	3-DMTT	27, 29-maktab	2
3	Chanoq MFY	4-DMTT	14-maktab	2
4	Charvador MFY	7-DMTT	46-maktab	1
5	Tinchlik MFY	8-DMTT	BAM	1
6	Mustaqillik MFY	8-DMTT	74-maktab	1
7	Eskibog‘ MFY	10-DMTT	15-maktab	1
8	Yangiobod MFY	11-DMTT	23-maktab	2
9	Dashtabod MFY	12-DMTT	78-maktab	1
10	Qorako‘l MFY	15-DMTT	35-maktab	1
11	Yorg‘unchi MFY	17-DMTT	11-maktab	1
12	Jarariq MFY	20-DMTT	50-maktab	1
13	Yakkadaraxt MFY	20-DMTT	12-maktab	1
14	Sovlig‘or MFY	24-DMTT	10-maktab	2
15	Eshonquduq MFY	15-DMTT	24-maktab	1
16	Ma’shal MFY	26-DMTT	72-мактаб	1
17	Navro‘z MFY	28-DMTT	34-maktab	1